



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

№1

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

2024



СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2024 йил, 1-сон

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎЗР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Таҳририят ижодий
жамоаси:**

Бош муҳаррир:
и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

**Бош муҳаррир
ўринбосари:**
и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

Масъул котиб:
и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

Муҳаррирлар:
и.ф.д. Ф.А.Сафаров
катта ўқит. Ш.З.Ўразов

Техник муҳаррир:
и.ф.н., доц. А.Н.Холиқулов

Корректор:
PhD С.А.Бабаназарова

Саҳифаловчи:
ассис. Х.Н.Очилова

1 йилда 4 мартаба
чоп этилади.

**Ўзбекистон ҳудудида
тарқатилади.**

Таҳририят манзили:
140100, Самарқанд шаҳар,
Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,
+998(66)233-17-88

факс: +998(366)231-12-53
эл.почта:

samisiservis@inbox.uz

Таҳририят кенгаши раиси:

М.Э.Пўлатов – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис
институти ректори, и.ф.д., профессор

Таҳририят кенгаши раиси ўринбосари:

Д.Х.Асланова – СамИСИ илмий ишлар ва
инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

Таҳрир кенгаши аъзолари:

Б.А.Бегалов – Ўзбекистон Республикаси Президенти
хузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д.,
профессор

М.Қ.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.К.Ғойбназаров – и.ф.д., профессор.

М.М.Мухаммедов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Д.Р.Зайналов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Муртазаев – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

М.Р.Болтабаев – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Р.Х.Эргашев – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

И.С.Тўхлиев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

К.Б.Уразов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Қ.Ж.Мирзаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.И.Исроилов – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Г.М.Шодиева – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.Абдукаримов – СамИСИ профессори, и.ф.н.

Р.Қобилов – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

С.Н.Тошназаров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Р.Н.Нормахматов – СамИСИ профессори, т.ф.д.

А.Бектемиров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

М.Т.Алимова – СамИСИ профессори, и.ф.д.

З.Дж. Адилова – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Ш.О.Қувондиқов – СамИСИ профессори в.б., иқтисод
фанлари доктори

Л.Н.Халикова – СамИСИ профессори в.б., DSc

Ф.А.Сафаров – СамИСИ доценти в.б., DSc

Ғолиб Султонмуродович Мустафоев Қишлоқ жойларда хизмат кўрсатиш соҳасининг иқтисодий самарадорлигини баҳолаш	80
Marifat Umarovna Xudoyberdiyeva Xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ahamiyati	85
Askar Axrorovich Siddikov, Ahmadbek Nizomiddinovich Najmiddinov Xizmat ko‘rsatish korxonalarida innovatsion faoliyatni takomillashtirish yo‘nalishlari	87
ТУРИЗМ ВА МЕҲМОНХОНА ХЎЖАЛИГИ	
Muslimaxon Xolmatjon qizi Soxibova O‘zbekistonda ziyorat turizmi resurslarini samarali boshqarishning nazariy asoslari	90
Murodjon Rajabbayevich Matniyozov Methodological bases of formation of tourism image of the Khiva destination	96
Kamol Sharifovich Yuldashev Mustaqil turizm rivojlanishining evolyutsiyasi	100
Ўткир Дўснаевич Ражабов Ўзбекистонда диний туризм ривожланишининг салоҳияти ва истиқболлари	106
КИЧИК БИЗНЕС ВА ОИЛАВИЙ ТАДБИРКОРЛИК	
Gulnora Mardiyevna Shadiyeva Ra‘no Akbar qizi Qulmurodova Raqamli iqtisodiyot sharoitida kichik biznes va oilaviy tadbirkorlik – aholi turmush darajasini oshirishning bir omili sifatida	110
Saodat Toxirovna Toshaliyeva Mamlakatimizda kichik tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish holati tahlili	114
Имомназар Эгамбердиевич Турсунов, Кермен Антоновна Наминова, Тулкин Саидахмедович Шарипов Развитие малого и среднего бизнеса в условиях цифровой экономики	118
Гулнора Мардиевна Шодиева, Дилноза Азаматовна Тоғаева Хизматлар кўрсатиш соҳасида оилавий корхоналарни ташкилий-иқтисодий механизмларини такомиллаштириш	123
Layli Baxtiyorovna Navruz-zoda Inson tadbirkorlik qobiliyatini baholash maqsadida uning sifat xususiyatlarini tasniflash	130
МЕНЕЖМЕНТ ВА МАРКЕТИНГ	
Navruzbek Zarifovich Niyatov Xizmat ko‘rsatish sohasida boshqaruv samaradorligini oshirish	134
Shahlo Akramovna Maripova Modern digital tools in small business management	138
Bekzodjon Oblakulov, Shakhnoza Narkulova Marketing Analysis of International Brand in the Case of Borjomi	143
Абдухолик Эгамович Тангиров Иқтисодиётни модернизациялаш шароитида корхона бошқаруви ва уни ташкил этишининг моҳияти	147
Зулфия Мусаевна Усманова Перспективные направления совершенствования механизма управления персоналом	151
ИНВЕСТИЦИЯ	
Jahongir Ravshanbek o‘g‘li Hoshimov Yangi O‘zbekistonga xorijiy investitsiyalarni jalb etish holatining kompleks tahlili	155

КИЧИК БИЗНЕС ВА ОИЛАВИЙ ТАДБИРКОРЛИК

Gulnora Mardiyevna Shadiyeva – SamISI, “Real iqtisodiyot” kafedresi professori, i.f.d.
Ra’no Akbar qizi Qulmurodova – SamISI, MI-122 guruh magistranti

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA KICHIK BIZNES VA OILAVIY TADBIRKORLIK – AHOLI TURMUSH DARAJASINI OSHIRISHNING BIR OMILI SIFATIDA

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada oilaviy tadbirkorlikning mazmun va mohiyati, oilaviy tadbirkorlikni tashkil etishning qonuniy asoslari, oilaviy tadbirkorlikni yanada rivojlantirib, oila farovonligini oshirishning yo‘nalishlari bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan. Shuningdek, raqamli iqtisodiyot sharoitida yurtimizda oilaviy tadbirkorlik rivojlanishi bo‘yicha taklif va xulosalar keltirilgan.
Kalit so‘zlar: raqamli iqtisodiyot, oilaviy tadbirkorlik, oila farovonligi, kambag‘allikni qisqartirish, investitsiya, texnika, innovatsiya, modernizatsiya.

Kirish. Raqamli iqtisodiyot sharoitida mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta‘minlashda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish muhim rol o‘ynaydi. Iqtisodiyotning transformatsiyalashuvi natijasida oilaviy tadbirkorlikning iqtisodiyotdagi o‘rni oshib boradi.

Chunki oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish aholini ish bilan ta‘milash, bandlik muammosini hal qilish, kambag‘allikni qisqartirish, aholi farovonligini oshirish imkoniyatini beradi.

Oxirgi yillarda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish maqsadida har bir oila uchun barqaror daromad va barqaror sharoit manbaini yaratish uchun bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, aholining moddiy ahvolini izchillik bilan yaxshilash, turmush darajasida sezilarli darajada ijobiy o‘zgarishlarni ta‘minlash, tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va amalga oshirishda tizimli amaliy yordam ko‘rsatish, aholining tadbirkorlik faoliyatlarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, aholini tadbirkorlik ko‘nikmalariga o‘rgatish va tegishli tadbirlarni tashkil etishda amaliy yordam ko‘rsatish, qo‘shimcha ish o‘rinlari va daromad manbalarini yaratish, allaqachon mahallalarda yangi faoliyat bilan shug‘ullanadigan oilalarda kichik-klasterlarni tashkil etish; bozor infratuzilmasi obyektlari, xizmat ko‘rsatish va xizmat ko‘rsatish punktlari tarmog‘ini yaratish kabilardir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvadagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasi” PF-60-sonli Farmonining uchinchi “milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘shish sur‘atlarini ta‘minlash” nomli ustuvor yo‘nalishining 29-maqsadida tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va uning muntazam daromad manbalarini shakllantirish uchun imkoniyatlar yaratish, xususiyl sektorning Yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 85 foizga va eksportdagi ulushini 70 foizga yetkazish maqsad qilib belgilangan. Shuningdek, belgilangan maqsadga erishish uchun 2026-yilga borib tadbirkorlik subyektlariga soliq yuklamasini yalpi ichki mahsulotning 27,5 foizidan 25 foizi darajasiga kamaytirish, hududlarda tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, ishsizlik va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha mavjud tuzilmalar faoliyatini takomillashtirish, tadbirkorlik subyektlari o‘z faoliyatini boshlashi uchun zarur ma‘lumotlarni erkin foydalanishga chiqarish kabi vazifalarni amalga oshirish lozim¹. Bu esa tanlangan mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

“Oilaviy tadbirkorlik to‘g‘risida”gi Qonunning 1-moddasiga muvofiq oilaviy tadbirkorlik oila a‘zolari tomonidan tavakkalchilik asosida va o‘zining mulkiy javobgarligi doirasida daromad (foyda) olish maqsadida amalga oshiriladigan faoliyat bo‘lib, tarkibidagi ishtirokchilarining ixtiyoriyligiga asoslanadi. Oilaviy tadbirkorlik faoliyati yuridik shaxs tomonidan tashkil etilgan yoki tashkil etilmagan holda faoliyat yuritishi mumkin. Yuridik shaxs tomonidan amalga oshiriladigan oilaviy tadbirkorlikning tashkiliy-huquqiy shakli oilaviy korxonalar sanaladi. Yuridik shaxs tomonidan tashkil etilmagan holda faoliyat yuritiladigan oilaviy tadbirkorlik qonun hujjatlarida ko‘rsatilgan tartibda faoliyat yuritiladi.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvadagi “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasi” PF-60-sonli Farmoni

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik taraqqiyotini tadqiq etishning ilmiy, nazariy asoslari va usullari R.Xizrich¹, ²M.Piters, A.Xosking, F.Xayek M.G.Lapusta, K.R.Makkonnell, F.F.Xamidullin³, M.M.Xait⁴, N.Yegorova, A.Larionov, V.Dolgopyatov, O.Zamkov singari xorijiy olimlar tadqiqotlarida keng yoritilgan. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning umumiy jihatlari mamlakatimiz olimlaridan U.V.Gafurov⁵, H.P.Abulqosimov, A.O‘lmasov, M.Sharifxo‘jayevlar, Q.Muftaydinov va boshqa olimlarning ilmiy ishlarida bayon etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning metodologik asosini kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni takomillashtirish sohasidagi qonunosti va me‘yoriy-huquqiy hujjatlar, xususan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon, Qarorlari olindi. Statistika ma‘lumotlarni to‘plash va ularni qayta ishlashda zamonaviy statistik usullar va kuzatuvlar, qiyosiy va tizimli, analiz va sintez usullaridan foydalaniladi.

Tahlil va natijalar. Hozir O‘zbekistonda oila xo‘jaligi tadbirkorligi vujudga kelib rivoj topmoqda. Ularning rivojlanishini ta‘minlash va jadallashtirish uchun tegishli oila xo‘jaligi tadbirkorlari uyushmalarining tashkil bo‘lishi tayin. Bunday birlashmalar orqali oila xo‘jaligini rivojlantirish va farovonligini oshirish bo‘yicha yirik ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilsa bo‘ladi. Kelajakda mamlakatimizda oila xo‘jaligi tadbirkorlari uyushmalarini barpo qilish doirasidagi muammolarni ham hal qilishni taqozo qiladi. Bunday nodavlat tashkilotlarining faoliyat ko‘rsatishini rivojlantirish konsepsiyasini ham ishlab chiqish bugungi kunda o‘ta dolzarb masalalardan biridir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma‘lumotlarida keltirilgan ma‘lumotlarga ko‘ra, 2022- yil 1-sentabr holatiga ko‘ra oilaviy korxonalar jami tadbirkorlik subyektlarining 11,4 foiz ulushini tashkil yetdi.

2021- yilning 1- noyabr holatiga respublikamizda jami 55 725 ta oilaviy korxonalar ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lib, ulardan 52 140 tasi faoliyat yuritmoqda.

Unda «oilaviy korxonalar - uning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish va realizatsiya qilish uchun ixtiyoriy asosda, ishtirokchilardan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan, shuningdek ulushli yoki umumiy mol-mulk ko‘rinishida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyekti» ekani ko‘rsatilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasida keltirilgan ma‘lumotlarga ko‘ra 2022 yilning yanvar-sentabr oylarida respublikada 9 711 ta oilaviy korxonalar yangi tashkil etilgan. Quyidagi diagrammada 2018 – 2021 yillarda yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar to‘g‘risidagi ma‘lumot keltirilgan.(1-rasm.)

Yuqoridagi diagrammada keltirilgan ma‘lumotlarni tahlil qiladigan bo‘lsak, oxirgi 4 yil ichida eng ko‘p 2020-yilda, eng past natija esa 2018-yilda oilaviy korxonalar tashkil etilgan. 2021-yilda tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 2020-yilga nisbatan 17 foizga kamaygan. 2020 yilda tashkil etilgan korxonalar soni 2019-yilga nisbatan 34 foizga oshgan, 2019-yilda tashkil etilgan korxonalar soni 2018-yilga nisbatan 2,7 barobarga oshganini ko‘rishimiz mumkin.

2022-yilda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 142 611,7 milliard so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Toshkent shahri (38 904,8 mlrd. so‘m), Toshkent (18 549,3 mlrd. so‘m), Farg‘ona (13 398,3 mlrd. so‘m), Andijon (12 077,9 mlrd. so‘m) va Samarqand (11 262,1 mlrd. so‘m) viloyatlari hissasiga to‘g‘ri keldi. Xorazm viloyatida (2 956,0 mlrd. so‘m) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo‘lib qolmoqda.


¹ Хизрич Р., Питерс М. Предпринимательство или как завести собственное дело и добиться успеха. – М.: «Прогресс», 1991. –С. 223 с

² Лапуста М.Г., Старостин Ю.Л. Малое предпринимательство. - М.: «Инфра-М», 1997. –С. 87.

³ Хамидуллин Ф.Ф. Развитие методологии исследования малого бизнеса. // «Проблемы современной экономики», 2007, №3(19).

⁴ Хаит М.М. Развитие малого бизнеса на основе реструктуризации крупных предприятий. // Вестник Московского университета, сер. 6. Экономика, 2006, №4. –С. 32-43.

⁵ Muftaydinov Q. Iqtisodiy erkinlashtirish sharoitida tadbirkorlikni rivojlantirish muam molar. / Dis. ... iqt. fan. d-ri. - T/, 2004. -18-b.



1-rasm. 2018 – 2021-yillarda yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni

1-jadval


2022-yilda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm

Toshkent sh.	38 904,8
Toshkent	18 549,3
Farg'ona	13 398,3
Andijon	12 077,9
Samarqand	11 262,1
Buxoro	9 237,4
Namangan	8 331,8
Navoiy	6 300,7
Jizzax	5 446,8
Qashqadaryo	5 392,4
Sirdaryo	3 880,5
Qoraqolpog'iston Resp.	3 744,6
Surxondaryo	3 128,8
Xorazm	2 956,0

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Jizzax viloyati (48,9 %), Namangan viloyati (45,7 %), Farg'ona viloyati (44,1 %), Surxondaryo viloyati (42,9 %), Samarqand viloyati (38,3 %), Toshkent sh. (36,3 %), Buxoro viloyati (33,9 %), Sirdaryo viloyati (31,9 %), Qashqadaryo (23,6 %) va Andijon (22,3 %) viloyatlari tashkil etdi.

Raqamli iqtisodiyot munosabatlarining qaror topishi oila xo'jaligi tadbirkoridan nafaqat tadbirkorlik bo'yicha, balki iqtisodiy ishlarni samarali tashkil etish bo'yicha ham o'ta bilimdonlikni va zukkolikni talab qiladi. Tadbirkorning iqtisodiy jihatdan bilim va saviyasining keng bo'lishi oila xo'jaligi daromadiga yana ko'proq foyda keltiradi, mulkini yanada oshiradi. Yanada muhimroq jihati, mulkning hajmi mulkni foydalanib uni sarflash orqali oshadi. Bu esa, nafaqat oila xo'jaligining, balki davlatning ham boyishi, iqtisodiy jihatdan mustahkamroq bo'lishi uchun asos bo'ladi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard maqsadi – odamlarimizga, har bir oilaga munosib turmush sharoitini yaratib berishdan iboratdir. Bu albatta, naqadar murakkab va mas'uliyatli vazifa. Bunday maqsadga erishish uchun faqat amaliy tadbirlarni amalga oshirishgina yetarli emas. Ushbu sohani chuqur tadqiq qilib, har bir oilaning farovonligini ta'minlash uchun ilmiy asoslangan tavsiyalarni ishlab chiqishni ham taqozo qiladi.



2-rasm. 2022 yilning yanvar-dekabr oylarida jami sanoat mahsulotidagi kichik tadbirkorlikning hududlar bo'yicha ulushi, % da

Biroq, iqtisodiyotni erkinlashtirish, bozor munosabatlarining shakllanishi bu muammoga yangidan yondoshishni talab qilmoqda. Shu tufayli, hozirgi paytda, oila xo'jaligining iqtisodiy muammosiga katta e'tibor berilmoqda. Ushbu soha iqtisodiy nazariya faniga kiritildi va u endilikda mikroiqtisodiyotning subyekti sifatida qaralmoqda.

Xulosa va takliflar. Raqamli iqtisodiyot sharoitida yurtimizda oilaviy tadbirkorlikni yanada takomillashtirish bo'yicha quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. oilaviy tadbirkorlik faoliyatini boshlagan tadbirkorlarga ularning faoliyatini yo'lga qo'yish va axborot markazlari tomonidan ma'lumotlar berib to'g'ri yo'l ko'rsatishlari, maxsus fondlar va mablag'lar yordamida maoliyaviy jihatdan yordam ko'rsatishlari, kerak bo'lgan hollarda bino va joylar bilan ta'minlashga yordam qilish;

2. oilaviy tadbirkorlik faoliyati bilan faoliyat olib boruvchi shaxslar so'nggi innovatsion texnologiyalardan unumli foydalana olish imkoniyatlariga ega bo'lishlari;

3. hozirgi kunda oilaviy tadbirkorlikni ro'yxatga olish ancha osonlashtirilgan bo'lib bu jarayonni yanada mustahkamlash va takomillashtirish;

4. oilaviy tadbirkorlik subyektlari tashqi iqtisodiy faoliyati jihatdan ham ularni qo'llab-quvvatlash, shu jumladan, xorijiy mamlakatlar bilan ilmiy-texnikaviy, savdo va ishlab chiqarish aloqalarini yanada oshirishga yordam berish;

5. oilaviy korxonalar faoliyati uchun yetuk kadrlarni tayyorlash, va ularning malakasini muntazam ravishda oshirib borish tizimini tashkil etish, buning uchun oliy ta'lim, o'rta maxsus o'quv yurtlarida "Oilaviy tadbirkorlik asoslari" fanini o'quv rejalariga kiritish kerak bo'ladi. Bu ishlarning ro'yobga chiqishi natijasida odamlarni o'zini o'zi ish bilan ta'minlash imkoniyatlari kengayadi va aholining ish bilan bandligiga imkon yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -T.:O'zbekiston, 2014. -46 b.
2. O'zbekiston Respublikasining «Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida»gi Qonuni (26-aprel 2012-y.).
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 6-son, 70-modda.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvadagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasi" PF-60-sonli Farmoni.
5. Хизрич Р., Питерс М. Предпринимательство или как завести собственное дело и добиться успеха. – М.: «Прогресс», 1991. –С. 223 с
6. Лапуста М.Г., Старостин Ю.Л. Малое предпринимательство. - М.: «Инфра-М», 1997. –С. 87.

7. Хамидуллин Ф.Ф. Развитие методологии исследования малого бизнеса. // «Проблемы современной экономики», 2007, №3(19).
8. Хаит М.М. Развитие малого бизнеса на основе реструктуризации крупных предприятий. // Вестник Московского университета, сер. 6. Экономика, 2006, №4. –С. 32-43.
9. Муфтайдинов Қ. Иқтисодий эркинлаштириш шароитида тadbirkorlikni rivojlanishi muammolari. / Дис. ... икт. фан. д-ри. - Т/, 2004. -18-б.

<p>Г.Шадиева, Р.Кулмурадова Малый бизнес и семейное предпринимательство в условиях цифровой экономики как фактор повышения уровня жизни населения</p>	<p>G.Shadieva, R.Kulmuradova Small business and family entrepreneurship in the conditions of the digital economy as a factor in raising the standard of living of the population</p>
<p>Аннотация: в данной научной статье освещены семейное предпринимательство, его содержание, правовые основы организации семейного предпринимательства, информация о путях развития семейного предпринимательства и повышения семейного благосостояния. Кроме того, есть предложения по развитию семейного бизнеса в нашей республике в условиях цифровой экономики.</p> <p>Ключевые слова: цифровая экономика, семейный бизнес, семейное благосостояние, сокращение бедности, инвестиции, технологии, инновации, модернизация.</p>	<p>Abstract: in this scientific article, family entrepreneurship, its content, legal basis of organizing family entrepreneurship, information on ways to develop family entrepreneurship and increase family well-being are covered. In addition, there are proposals for the development of family business in our republic in the context of the digital economy.</p> <p>Keywords: digital economy, family business, family welfare, poverty reduction, investment, technology, innovation, modernization.</p>

Saodat Toxirovna Toshaliyeva – Termiz davlat universiteti “Biznes va boshqaruv” kafedrasini mudiri, PhD, mustaqil tadqiqotchi

MAMLAKATIMIZDA KICHIK TADBIRKORLIK FAOLIYATINI TASHKIL ETISH HOLATI TAHLILI

Annotatsiya: ushbu maqolada mamlakatimizda kichik tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish xususiyatlari, afzalliklari, zarurati yoritilgan va uning holati tahlil qilingan.

Kalit soʻzlar: tadbirkorlik, kichik tadbirkorlik, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, iqtisodiyot tarmoqlari, hudud.

Kirish. Bugungi kunda xususiy sektor va tadbirkorlikning rivojlanishi islohotlarni amalga oshirishga qaratilgan yangi jarayonga aylandi. Bu borada aholining faolligi zamonaviy texnologiya va turli sohalarida ishlashga qiziqishlari ham ortib bormoqda. Chunki, iqtisodiyotda kundan-kunga yangi yoʻnalish va sohalar yaratilmoqda. Ayniqsa, xususiy tashabbuslarni kengaytirish va ular uchun yangi istiqbolli turlarini yaratish tizimli boshqaruvni taqozo qiladi. Bu borada Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasida taʼkidlanidek, “Agar jami 750 mingta yangi dehqon xoʻjaligini tadbirkorga, yer egasiga aylantira olsak, qishloqda juda koʻp ijtimoiy muammolar, avvalo, ishsizlik va kambagʻallik masalasi yechiladi” [1]. Darhaqiqat, mamlakatimizda kichik tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish oʻziga xos istiqbolli soha boʻlib hisoblanadi. Shu bois, ushbu sohaning rivojlanish holatlarini tahlil qilish maqsadga muvofiq.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Maʼlumki, mamlakat va uning hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish samaradorligi ishlab chiqarish va ijtimoiy soha rivojlanish natijalarini ifodalovchi iqtisodiy kategoriya hisoblanadi. Kichik tadbirkorlikning hudud ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga qoʻshgan hissasi va tahlili A.Y.Kremin tomonidan oʻrganilgan [4]. Ayrim tadqiqotlarda kichik tadbirkorlikni hududiy rivojlanish dinamikasiga taʼsirini baholashda kichik

ISSN 2091-5187

∞ “СЕРВИС” ∞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят
бўлимида нашрга тайёрланди.

06.03.2024 йилда теришга берилди. 29.03.2024 йилда босишга рухсат этилди.
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84_{1/8}. “Times” гарнитураси. Офсет
босма усули. Шартли босма табағи 15,76. Ҳисоб-нашриёт
табағи 12,5. Адади 100 нусха. Буюртма № 0024А/30.

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг
матбаа бўлимида чоп этилди.
Лицензия № 025316.
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2024.